



O'ZBEK TILI MASHG'ULOTLARIDA HAZRAT ALISHER NAVOIY TIL XUSUSIYATLARINI O'RGANISH

K. A. Гаюбова

TATU

Ulug' bobomizning yurt kamoli, ravnaqi yo'lida chekkan zahmatli, lekin g'oyat savob va taxsinga loyiq xizmatlaridan biri millatning joni, so'nmas iftixori bo'lgan ona tilimiz mustaqilligi uchun bo'lgan kurashdir. Zukko olimlarimiz topib aytganlaridek, o'zbek tiliga davlat tili maqomini Hazrat Navoiy in'om etib ketganlar, zero: Turk nazmida chu men tortib alam,

Ayladim ul mamlakatni yakqalam.

To'rt devon birla nazmi panj ganj,

Dast berdi chekmayin anduxu ranj.

Nazmu nasrim kotibi taxminshunos,

Ezsa, yuz ming baty etar erdi qiyos.

Deb, o'zlarining ijodiy meroslarini sarhisob qilganlarida yoki bir go'zal gazallarini maqta- so'nggi shoh bayt: Xo'blar o'rgansalar, tong yo'q Navoiy nazmini,

Kim olarning xusni oning ishqidan topmish rivoj.

Deb yakunlaganlarida, tamomila haq edilar. Shoh Boburning ma'lum va mashhur bahosini esga olaylik: «Alisherbek naziri yo'q kishi erdi. Turkiy til bila to she'r aytubdilar, xech kim oncha ko'p va xo'p aytqon emas ». Yoki temuriylar saltanatining yana bir turkiiajod farzandi, Navoiy ijodining buyuk homiysi va ixlosmandi podshoh Husayn Boyqaro o'zining she'riy devonida: «Anglang ey axdi vafo, gar o'lsangiz tortib jafo, Bevafolardin vafo rasmin tammano qilmangiz» yanglig' go'zal misralar bitgan o'zi tartib bergan «Risola»sida ona tiliga chin vafodor do'sti Alisherbekni «turk tilining o'lik jasadiga...ruh kiygizdi» deb tariflagan edi. Asrlar davomida xalqimizning, uning olimu fuzalo, donoyu donishmand farzandlarining e'tirofi va e'tiborida bo'lgan Hazrat Alisher Navoiy tilidan hozir ancha yiroqlashib ketdik. Buning sabablaridan biri maktabda Alisher Navoiyning ko'ngildagidek o'qitilmagani, uning asarlari yetarli darajada sharhlanmaganidir. Hozir ham kech emas. Fursatni boy bermay ishga kirishmoq zarur. Yirik navoiyshunos olim, muxtarm professor olim Alibek Rustamov to'g'ri



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th March, 2025

ta'kidlaganlaridek, sog'lom jamiyatda bola tarbiyasi milliy asosda, muqaddas kitoblar va purma'no asarlar o'qitishdan boshlanadi. O'zbek tili va adabiyoti ta'limi uchun eng muhim manbaa oqil-u dono amir, mehribon murabbiy-u mohir muallim, karamu karomat sohibi, buyuk allomayu benazir san'atkor Alisher Navoiyning asarlaridir.

Endi masalaning eng muhim jihatiga e'tibor beraylik, aslida, Alisher Navoiyning barcha asarlarining tili hozirgi adabiy tilimizdan keskin farq qiladimi? Aslo! Axir, chinakam shoir xalq tiliga, diliga xos va mos bo'lmagan tilda asar yaratmaydi. Gap shundaki, Navoiyning xalq orasida keng tarqalgan dostonlari, xikmatlari tili hozirgi kitobxon uchun ham, asosan, tushunarlidir. Qani, ko'raylikchi shoir nima degan ekanlar : Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,

Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,

Har neniki sevmak ondin ortiq bo'lmas,

Ondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz!

Uning suyuqli qahramoni Shirin-chi: Menga ne yoru ne oshiq havasdur,

Agar men odam o'lsam, ushbu basdir.

Farxod ne demoqda: Dedi: Har ishki qilmish odamiyzod,

Tafakkur birla bilmish odamiyzod.

O'z qahramoni Qaysga baho berarkan, Alisher Navoiy: Oz vaqtda ayladi zamona

Oni bori ilm aro yagona,

Qays tilida esa: Derlar menga ishni unutqil,

Layli dardin kanora tutqil.

Ollox! Ollox! Bu ne so'z o'lg'ay,

Ul qavmga tengri uzr qolg'ay.

Degan bo'lsalar, hozir «on» so'zini «u»; «kanora» so'zini «chet, chekka»; «uzr qo'lg'ay» so'zini «uzr so'rar» yoki «qo'lni ko'ksiga qo'yib, avf so'rar» deb zohlasak va o'lmoq so'ziyu turli qo'shimchalardagi tovush farqlarini hozirgi talaffuzga moslab o'qisak, hamma narda ko'ngildagidek bo'lardi. Ammo buning uchun besh asr mobaynida o'zgarib, o'zining yangi taraqqiyot bosqichiga erishgan adabiy tilimiz bilan Navoiy davri tili o'rtasida farqli tomonlar, unsurlar to'la aniqlanishi, tartibli, tushunarli qilib izohlanishi va bu g'oyat muhim va mas'uliyatli vazifani tezroq hal qilmog'imiz zarur. Hozirgacha bu sohada Alisher Navoiy tilining



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th March, 2025

bir tomlik (1972), to'rt tomlik (1983-1985 yillar) izohli lug'atlari nashr etildi, ba'zi ilmiy risolalar, maqollalar yozildi, xolos. Ularning nusxasi ham- oz miqdorda. Demak, bu nashrlarni keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallab, ko'plab chop etishga ehtiyoj katta. Yana bir istagimiz shuki, Navoiy davri tili grammatik ko'rsatkichlarining- so'z bilan so'zning, gap bilan gapning o'zaro aloqasini ta'minlaydigan qo'shimchalaru yordamchi vositalarning alohida izohli -qiyosiy lug'atini yaratish zarur. Ana o'shanda millionlab navoiyxonlar ko'chasida ham haqiqiy bayram bo'lajak.